

ISHQ ARO JUNUN BEDODI

Elnura QURBONOVA

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803838>

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodidagi junun istilohi xususida fikr-mulohazalar bildirilib, turli ilmiy, diniy-tasavvufiy manbalar asosida tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: Alisher Navoiy, ishq, oshiq, hol, maqom, junun.

Abstract: The article presents opinions on the term "junun" in the work of Alisher Navoi and analyzes it based on various scientific, religious and mystical sources.

Key words: Alisher Navoi, ishq, ashik, hāl, maqām, junoon.

Аннотация: В статье представлены мнения о термине «джунун» в творчестве Алишера Навои и проведен его анализ на основе различных научных, религиозных и мистических источников.

Ключевые слова: Алишер Навои, любовь, возлюбленный, джунун, статус

Ishq mavzusi va oshiq holini tavsiflash Sharq she'riyatida muhim o'rin tutadi. Zero mumtoz adabiyotda hamisha ishqning o'ziga xos ramziy tili, ifoda yo'sini bo'lgan. Har qanday obraz tavsifida ma'no mushtarakligi inobatga olinib, ma'shuqa sifatlari, raqibga xos xususiyatlar bilan birga oshiq ko'nglining bedorligi, zohir-u botin manzaralari turli timsol-u istilohlar vositasida qalamga olingan. Darhaqiqat, Alisher Navoiy ijodiyotining mavzu ko'lami nihoyatda rang-barang, biroq ishq mavzusi shoir ijodining mohiyati, maqsadini tashkil etadi. Mutasavvif shoir "Hayrat ul-abror"da ishq ta'rifida shunday deydi:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,

Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun¹.

"Yer-u ko'kni sen uchun yaratdim", qudsiy hadisiga tayangan mutasavviflar butun borliq yaratilishining sababini ishq deb bilishgan. Ishq ahli yaratilish mohiyatini anglagan, qalb mushohadasiga berilgan, zavq va hol ne'matini totgan, Mutlaq go'zallik shaydolari bo'lishgan. Ishq oshiq uchun hayot haqiqati, tiriklik mazmuni, butun borliq mavjudligining sababidir. Shu bois, hazrat Navoiy lirik, nasriy asarlari va dostonlarida ishq mavzusiga batafsil to'xtaladi. Oshiqning turli hol va maqomlarini daqiqlik bilan talqin qiladi. Xususan, "junun" shoir ijodida ko'p istifoda qilingan istiloh bo'lib, asosan, ishq ahlining sifatini tamsil qilgan.

Junun ilmiy adabiyotlarda "savdoyilik", "jinnilik", "aqldan ozganlik", "devonalik", "aqldan begonalik", "telbalik", ma'nosini anglatadi. Tasavvuf atamalari

¹ Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр // Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик, 7-жилд. – Тошкент: Фан, 1991, 203-бет. Bundan keyin mazkur nashrga murojaat qilinganda, jildi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi. – E.Q.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

talqin etilgan kitoblarda “oshiqlik”, “beqarorlik”, “sabr-u toqatsizlik”, “faqat Alloh yodi bilan band bo‘lish”, “jazba holda yashash”, “ilohiy jazbadan nasibador bo‘lish”, “dunyoning barcha sir-asroridan ogoh bo‘lgan holda o‘zidan begonalik holati”, deya e’tirof etilgan [1,599, 187, 199].

Junun so‘zi asli arab tilidagi “**janna**” (جَنَّة) fe‘lidan hosil bo‘lgan. Arab tilida bu so‘z ko‘pincha narsaning botini yoki ichki holatiga ishora qilib, “to‘silmoq”, “bekilmoq”, “biror narsaning yashirilishi”, “o‘ralishi”, “ko‘rinmas bo‘lishi”, degan ma‘nonlarni ifodalaydi. Imom Abu Hanifaning fikricha, junun ma‘lim bir shaxsda yilning ko‘proq qismida davom etsa, u “jununi mutbiq” (mutlaq majnun), agarda yilning yarmidan kam qismida yuz bersa, bunday kishi “jununi g‘ayri mutbiq” (mutlaq majnun emas) deb hisoblangan [2.77]. Shu o‘rinda jununga mahiyatan yaqin bo‘lgan sakr holiga ham izoh berish joiz. Zero, sakr ham qulning ilohiy ishqdan sarmastlik holi bo‘lib, u faqat vujud sohiblariga xos [4.141]. Sakrning g‘olibligi va shiddati esa “jununi mutbiq” (mutlaq junun) holatiga tengdir [5.590].

Aytish joizki, hol va maqomlar ishq ahliga xos xususiyatdir. **Zero, maqom** bandaning o‘z mehnati, irodasiga bog‘liq holda doimiy riyozat, zikr va ibodat amallari vositasida erishadigan ruhiy daraja bo‘lib, barqaror xususiyatga ega bo‘lgan. Qushayriy buni quyidagicha izohlaydi: “Hol Tangrining in‘omi, maqomlarga esa jahd va g‘ayrat bilan erishilgan. Maqom sohibi maqomida mustahkam va qoimdir, hol egasi esa tinimsiz yuksaladi. Ulug‘lardan biri: “Hollar chaqmoq kabidir. Agar ulardan bir narsa qolsa, hol emas, nafsning so‘zidir”, degan [4.127-128]. Shunga ko‘ra, junun oshiqdagi ruhiy holatni ifodalagani bois **maqom** emas, **hol deb qaralishi maqsadga muvofiqdir.**

Haqiqiy ishq talabgori bo‘lgan oshiq sayr-u sulukda ma‘naviy kamolga yetish uchun bir qancha “manzil”, “maqom” va “hol”larni bosib o‘tgan. Zero, oshiqlik botiniy ilm va hol bilan yetish mumkin bo‘lgan yuksak martabadir. Qalbdagi turli hollarning kashf bo‘lishi, ruhiyatda kechgan ilohiy evrilishlar oshiqning ma‘naviy martabalarda ilgariyotgani belgisidir. Inchinin, jununlik oshiqning oliy matlabi bo‘lib, chin ma‘nodagi hurlikka erishgan, ilohiy ishq shavqiga berilgan ahli dillarga xos xususiyat sanaladi. Bu ruh va ko‘ngil birligi bilan bo‘g‘liq jarayon bo‘lgani bois, faqat boshdan kechiribgina anglash mumkin bo‘lgan yashirin holdir.

Junun oshiqlikda oliy darajalardan biri bo‘lib, Ilohiy ishqdan sarmast, Haq visoliga tashna ahli dillarga xos ruhiy kamolot belgisidir. Junun ahlining maqsadi yolg‘iz Haq diydoriga yetish bo‘lgani bois, Yor yodi, uning mislsiz jamoli oshiq xayolini band etadi. Ishqning chegara bilmas shiddati butun borlig‘ini qamraydi. Natijada, oshiqdagi ilohiy jazba va avj holati ortib, o‘zidan voqif bo‘la olmaydigan

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

holga tushadi. Aql-u hushdan begona bo'lmada xalq nazdida devonavash ko'rinadi. Bu holni ulug' pir Ahmad Yassaviy sodda tilda shunday bayon qilgan:

*Oshiq g'olib, o'zi tolib Haqni izlar,
Haqni tobqon devonalar behush so'zlar,
Maqomlari baland maqom Arshni ko'zlar,
Xalqqa o'zin rasvo qilib yurur bo'lg'ay [6.155].*

Irfoniy she'riyatda devonalik, qalandarlik, darveshlik, majzublik, savdoyilik istilohlari mazmunan jununga yaqin ma'noni anglatsada, Alisher Navoiy ijodida bu tushunchaning mohiyati kengaygan, yanada teran mazmun va maqsad-muddaoni ifodalagan. "Mumtoz adabiyotda insonning xayolot olami va Haq yo'lovchisining ruhoniyligi asosiy tasvirlardandir. Shu ma'nodagi savdoyilik – junun holiga tengdir. Shuning uchun ahli junun, ahli savdo ishqqa muhtal bo'lgan, nafsini mahv etib, o'zligini unutgan oshiq'larga nisbatan qo'llaniladi. Ularning jununi, aqldan ozishi savdoning ortib ketishi bilan bog'liq. Bu savdoyilik, aslida, ruh pokligiga, qalbi salimga ishoradir"[3.38-39].

Hazrat Navoiy "junun sahrosi", "junun dashti", "junun vodiysi" kabi istilohlar vositasida ishqning nechog'lik bepayon, xadsiz va chegarasiz ekanligiga e'tibor qaratadi. "Men junun sahrosida yittim" (3,277), der ekan, zukko she'rxon diqqatini ishq sarhadining cheksizligini anglashga qaratadi.

Oshiqdagi jununlik tamoman ruh bilan bog'liq hol bo'lgani bois, aql va idrokning ahamiyati yo'qoladi. Zero, chin oshiqlik aqlga zid tushuncha bo'lib, Yaratganning xos qullariga nasib etadigan ulug' ne'matidir. Shoirning quyidagi bayti aynan shu maqsadni aks ettirib, g'ayb fayzidan nasiba olgan, ilohiy zavq va shavq lazzatini tuygan oshiq ruhiyatini ifodalaydi:

*Ey ko'ngul, gar aql etar man'i jununim ne jadal,
Ayb erurkim, ahli donish qilsa nodon birla bahs (3,90).*

Inson aqli dunyoviy bilimlar vositasida ko'plab ilmiy yutuqlarga erishish, ilmiy kashfiyotlar qilish imkonini beradi. Tasavvuf ilmida Haqni anglashda zohiriy ilm va aqlning o'zi kifoya emas, deb qaraladi. Haqqa yaqinlik, ilohiy sirlar haqiqatiga yetish qalb bilan bo'ladigan holdir. Qudsiy hadisda Alloh "Men ko'klarga, bo'shliqlarga, yuksak aqlar-u nafslarga sig'madim, mehmondek borib, mo'min bandamning ko'nglida kayfiyatsiz, mohiyati tushunarsiz bo'lgan bir shaklda makon tutdim, o'sha yerda mehmon bo'ldim", deyiladi. Shu bois ishq ahli ko'ngil holini anglashga alohida ahamiyat berib, ishqdan bexabar, oshiqlik mohiyatini anglamaydigan, zohirbin, riyokor ahli suvratlar tanlagan aql yo'lidan ko'ra ishq yo'lini yoqlaganlar.

Mutasavvif shoirning lirik qahramoni "junun toshi" yordamida ko'ngilga mahkam o'rnatilgan "aql shavkati" va "taqvo shukuhi"ni sindirmoqni maqsad qiladi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Gar ko'ngil asov ot singari bo'ysunmaydigan bo'lsa, "junun zanjiri"ga mahkam bog'lab, hajr zindoniga, yor ishqining posboni ixtiyoriga topshirishni qasd qiladi:

Ishqing ichra ko'ksuna oncha junun toshin uray

Kim, xiradning shavkatini, taqvo shukuhini sinduray.

Qilsa tavsanlig' ko'ngul tortib junun zanjirig'a,

Hajr zindonida ishqing shahnasig'a topshuray (3,469).

Oshiq dunyoviy istaklar changalidan xalos bo'lishni istar ekan, Yor visolidan umidvorlik undagi eng oliy maqsadga aylanadi. Baytdagi "xirad shavkati" va "taqvo shukuhi" bu yo'lidagi har qanday to'siqlarni tamsil etadi. Shoirning quyidagi satrlari ham shu fikrlarga yondosh:

Junun toshi xarobot ichra har dam ko'ksuna urmoq,

Erur taqvo-yu donish butlarin tosh birla sindurmoq (3,256).

Ishq ahli, avvalo, hol ahli, ruhiy hajr va jismoniy aziyatlarga mahkum dard ahlidir. Shu bois suvrat ahliga xos ishqsizlik, bedardlik, ilm-u aql ortidan kelgan shuhrat, havoyilik va takabburlik junun ahlida nomutanosiblik, murosasizlikni avj oldiradi. Insonning moddiylikdan ilohiylik sari yuksalishi tamoman qalb va ruh bilan sodir bo'ladigan holat. Dunyo mayliga berilmaslik, oshiqning komillik sari erishgan oliy pog'onalardan biri. Zero, dunyoga ko'ngil bog'lamaslik, uning arzimas matoh ekanligi Qur'on oyatlariga asoslanadi. Qur'oni karimning (Oli Imron: 14, Kahf: 46, Hadid: 20) qator oyatlarida Odamlarga ayollar, bolalar, tillo-kumush, go'zal otlar, chorva, ekin-tikindan iborat shahvatlarning muhabbati ziynatlangani; bu dunyo hayoti o'yin, ko'ngil ermagi, zeb-ziynat va o'zaro faxrlanish, mol-mulk, bola-chaqani ko'paytirishdan iboratligi; insonni g'ururga ketgazuvchi matohligi ta'kidlanib, boqiy qolguvchi solih amallar Alloh huzurida savob va umid jihatidan yaxshiroq ekani marhamat qilinadi. Shu bilan birga Oli Imron (Orangizda dunyoni xohlaydigan kimsalar bor. 152-oyat), Anfol (Sizlar dunyoning o'tkinchi matohini istaysizlar. 67-oyat), An'om (Bu dunyo hayoti o'yin-kulgidan o'zga hech narsa emas. 32-oyat), Ra'd (Ular bu dunyo hayoti ila shod bo'ldilar. Holibuki, bu dunyo hayoti oxirat oldida arzimas matoh, xolos. 26-oyat) kabi qator suralarda Alloh bandalarini dunyo va uni ziynatlovchi narsalar muhabbatiga aldanib qolmaslikni buyuradi.

Ma'lumki, zulf yor go'zalligini ifodalash bilan birga, irfoniy adabiyotda chuqur tasavvufiy, falsafiy mazmunga ham ega. Zulf dunyo va undagi tashvishlar, turli murakkabliklar, fitna va kufri, uning jingalasi, gajaklari esa yor visoliga intilgan oshiq – solik yo'lidagi mushkulotlarni tamsil qilgan. Oshiq ishq yo'lida sobitqadamlik bilan ildamlashi, dunyoviy bog'lardan xalos bo'lishi lozim. Ishq

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ahlining hasrati aks ettirilgan quyidagi misralar ham bejiz aytilmagan bo'lib, unda shoirning betakror falsafiy mushohadasi aks etgan:

*Navoiy, ahli junun qaydi yor zulfi emish,
Xirad tanobini uz, band agar bu silsiladur (3,165).*

Lirik qahramon yor zulfini junun ahli uchun bir band, kishan deb bilgani bois, xirad – aql, fikr-u zehn arqoni silsilasini uzishga hozir. Negaki, aql ham dunyoga xoslik belgisi, uning bir parchasidir. Aql bahslaridan voz kechib, botin yo'lini tanlash, qalb ko'zi vositasida ilohiy haqiqatlar olamini ko'rish va Haq sirlariga yetish mumkin. Azob, uqubat, dard va qayg'u talabgorlari bo'lmish ahli dillar jondan kechmay ishq sirlariga yetib bo'lmasligini anglaganlar. Bu holga erishgan oshiq avom nazdida majnun deya atalishi, shubhasiz. Xirad ahldan farqli o'laroq oshiqning botiniy idroki yuksak, shu bois ham o'zidagi jununlik holidan mamnun, chunki u:

*Jon berib oldim junun-u ishq to bo'ldum fano,
Olloh-Olloh, ul ne xush savdo, bu ne xush sud erur (3,125).*

–deydigan darajada ruhiy baland martabaga erishgan.

Go'zal yor yodi oshiqda majnunlik kayfiyatini oshiradi. Ko'zdagi giryonlik, aql-u donishdan uzoqlashish, junun holining paydo bo'lishi, jismda hijron toshining naqshlanishi – chin oshiqqa xos kamolot belgilaridir:

*Jonni Majnun ul pariy ruxsora yodi ayladi,
Ko'zni giryon ishq zulmi may fasodi ayladi,
Tanni uryon, aql-u donish xayrbodi ayladi,
Ishq ko'yida jununumni munodo ayladi,
Hajr toshidin munaqqash jismi uryon oqibat (3,497).*

Junun oshiq qalbining turfa murakkabliklarini aks ettiruvchi hol bo'lib, bu faqatgina aql-u hushdan begonalik emas, balki erkinlik va ruhiy barkamollikning yuksak darajasidir. Junun – dunyoviy bandlardan uzilgan, butkul ozod, mutlaq hurriyat sohiblarining sifati. Bunda oshiq dunyo va uning tashvishlaridan voz kechib, aql-u idrokni dunyoviy manfaatlardan xalos etadi. Butun borliqda faqat ilohiy sirlar mohiyatini ko'radi. “Junun – kamoli ishq va erkinlik kamoli. Hech bir davr va zamonda jamiyat junun kamolini quvvatlamagan, quvvatlashi mumkin ham emas” [8.15]. Oshiqdagi jununlik dunyoviy aql egalari uchun tushunarsiz bo'lgani bois, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo'lgan. Xirad ahli ishqning asl mohiyatini anglay olmaydilar. Ishqdan bebahra avom, Yaratgan bilan yaqinlik shavqi va visol sururidan mast bo'lgan oshiq ruhidagi kechinmalarni anglashda qiynaladilar, uni majzub-u devona sifatida qabul qildilar. Biroq Navoiyning lirik qahramoni vahdat mayidan sarmast, ishqdan yetgan saodatdan g'oyat mamnun, shu bois, o'zidagi hol

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bilan faxrlanadi. Ilohiy haqiqatlar mohiyatini tushunib yetishda aqlning ojizligini anglamagan bu qavm esa, aslida, junun ahli aro nodonroqdir:

*Ko'rsa hush ahli yuqar mendin junun holimg'a boq
Kim, xirad ahli ulusning boisi savdosimen.
Kim junun ahli aro nodonroq ul, donoroq ul,
Ishq-u dard iqbolidin ul xaylning donosimen (4,359).*

Ma'lumki, tasavvufda hayrat maqomi inson aqli yetib borishi mumkin bo'lgan so'nggi nuqta. Tafakkur va idrokning oxirgi manzili. Bunda Haq taolo ishqiga g'arq bo'lgan oshiq Alloh qudrati, fazl-u karami, cheksiz hikmati qarshisida, ba'zan esa ilohiy tajalliydan hayratga tushadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) faqirlik maqomidagi o'n maqom, o'n nur, o'n yo'l, o'n o'rin va qirq martabadan bahs yuritar ekan, o'n yo'ldagi to'rtinchi maqom hayrat maqomidir, deganlar [7.91].

Ta'kidlash joizki, mutafakkir shoirning ma'lum mavzudagi qarashlari goh lirikasida, goh nasriy asarlari, ba'zan esa dostonlarida izchil davom ettiriladi, o'zni kelganda mazmunan boyitiladi. "Lison ut-tayr" dostonidagi "Aqlning bo'ynig'a hayratdin tanob" (12, 322) satri aynan shu mohiyatni ochib bergan, desak xato bo'lmaydi. Hazrat Navoiy ijodi nafaqat mavzu rang-barangligi, balki mazmun noyobligi va betakror jozibasi bilan ham ajralib turadi. Shoir "junun o'ti", "junun jomi" istilohlari qatorida "junun tumori", "junun ta'vizi" birliklarini ham ko'p qo'llaydi. Mazkur tushunchalar Navoiy ijodida muhim o'rin tutish bilan birga oshiqning ahvol-ruhiyasini yanada yaqqolroq ifodalab, jununlik mohiyatini teranroq idrok etishda asosiy vazifani bajaradi. Ta'viz – ko'z tegishi va boshqa turli yomonliklarni qaytarish, himoyalaniq maqsadida yozilgan tumor bo'lib, "junun ta'vizi" – telbalik va savdoyilikni sog'aytiradi, deb bo'yinga taqiladigan duo tumorini anglatgan. Shoirning lirik qahramoni: Kimki mendagi jununni daf qilish uchun ta'viz yozmoqchi bo'lsa, qonli ko'z yoshim va yuzimning sarg'aygan rangi ila bitsin, zero tumorda shingarf va za'faron bo'lishi kerak, deya fig'on chekadi:

*Kim jununumg'a yozar ta'viz iynak ashk-u yuz,
Gar kerak shingarf birla za'faron tumorda (5, 396).*

Shingarf – qizil bo'yoq, qizil rang; za'faron – sarg'ish rangli xushbo'y o'simlik. Qadimda shingarf va zafarondan turli maqsadlarda, jumladan, san'atda bo'yoq va yozuv uchun siyoh vositasi sifatida ham ishlatilgan. Obraz holatini xarakterlash va tavsiflash maqsadida istiora san'atidan foydalangan shoir ishq, hijron, g'am uyg'unligini teran va ramziy tasvirlarda ifodalaydi. Shingarf oshiqning ko'zidan oqqan qizil qonli yoshni, zafaron esa so'lg'in, g'am-anduh, hijron azobidan sarg'aygan yuzni tamsil qilgan. Biroq oshiq nazdida, bu kabi chora-tadbirlar samasiz, chunki:

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Ey fusungar, yozma tumor ul junun daf'ig'akim,
Sharhi yozilsa, tunganmas yuz tuman tumor ila (6,384).*

Ishq talabgori bo'lish – Yaratganning cheksiz irodasi va qudrati, beqiyos inoyatlariga noil bo'lish uchun tinimsiz sa'y-harakat qilish, natijada ishqning sir-asrorlaridan bahramandlikdir. Inchunin, ishq oshiq uchun tiriklik suvi, hayot chashmasi. Visol esa eng oliy saodat erur. Zero, ishqda e'tiqodi yuksak, taqvoda yetuk oshiq Haqqa tamoman taslimiyat ila tavakkul qilarkan, Xoliqning lutf-u marhamati, keng karamiga tayanadi. Umuman olganda, shoir lirikasida ilgari surilgan aksar fikrlarning tub mazmunida shu mohiyat yotadi. Junun yo'lini tanlagan lirik qahramonning ishqdagi holati ham shunday:

*Navoiy, ahli junun zumrasig'a kirdi ilohiy,
Chu aylading ani Majnun, o'zungni qil anga Laylo (4,3).*

Xulosa qilib aytganda, lirik qahramonning ichki kechinmalari, turli manzil, hol va maqomlarni bosib o'tish jarayoni hazrat Alisher Navoiyning butun asarlarida yorqin ifodasini topgan. Shoir ijodida “junun” tushunchasi ishq ahlining sifatini aks ettirib, unda ulug' mutafakkirning falsafiy, diniy-tasavvufiy qarashlari ham o'z aksini topgan. Alisher Navoiy asarlaridagi ishq mavzusi va oshiq ruhiyatining evrilishlarini chuqur tadqiq etish mutasavvif shoir ijodining g'oyaviy yo'nalishi, tasvir usuli va badiiy mahoratining sir-asrorlarini kengroq o'rganish imkonini beradi. Junun istilohining mazmun-mohiyatini shoir ijodi kontekstida tahlil qilish bu tushunchaning nozik va chuqur qirralarini anglashni osonlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. 1 том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б; Алишер Навоий қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Sharq NMAK, 2016. – 536 б; Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Akadernashr, 2023. – 656 б. Cebecioğlu Ethem. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Istanbul. 2020. – 741 s. www.turklib.com
2. Ali İbn Muhammed es-Seyyid eş-Şerif Cürçani. Arapça-Türkçe Terimler Sözlüğü. (Fıkıh, hadis, tefsir, felsefe, kelam, hendese, mantık, tasavvuf, edebiyat, tarih, lügat, tecvid terimlerinin ta'rifleri ve açıklamaları). Tercüme ve şerh: Arif Erkan. – Istanbul: Bahar yayınları, 1997. – 288 s.
3. Abdurahmon Z. Navoiyshunoslik manzillari. – Toshkent: Sarvarprint, 2024. – 140 б.
4. Kuşeyrî. Tasavvufun İlkeleri. Rısala-ı Kueyrî. Çev. Tahsın Yazıcı. – Istanbul, 1978. – 384 s.
5. [Seyyid Mustafa Rasim efendi](#). Tasavvuf sözlüğü istilahat-i insan-i kamil. – Istanbul: İnsan yayınları, 2008. – 1286 s.
6. Turkiy adabiyot durdonalari. Hoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oni. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar, S.Rafiddinov, N.Hasan. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 592 b.
7. Яссавий “Фақрнома”си. Абдурахмон Гўзал. – Тошкент: Наврўз, 2014. – 266 б.
8. Ҳаққул И, Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами (Мақолалар тўплами). – Тошкент: O'zbekiston, 2016. – 304 б.